| <b>Xaydarova Nargiza Anvarovna</b>                                                                                                        |     |
| Tadbirkorlik faoliyatini samarali boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning holati .....                                     | 676 |
| <b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>                                                                                                   |     |
| Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri .....                                                                        | 680 |
| <b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>                                                                                                   |     |
| Tadbirkorlikni samarali boshqarishda va raqamli texnologiyalardan foydalanishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....           | 687 |
| <b>Sattarov Xayrulla Fayzullayevich</b>                                                                                                   |     |
| Теоретические вопросы инвестиционного обеспечения центров инновационного роста региона .....                                              | 688 |
| <b>Умаров Б.С</b>                                                                                                                         |     |
| Mahallalarda tadbirkorlikni va hunarmadchilikni rivojlantirishni boshqarishning ilmiy-nazariy jihatlarini .....                           | 696 |
| <b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>                                                                                                   |     |
| A Comparative Technological Assessment of Lubricants Utilized in Cotton Ginning and Spinning Mills .....                                  | 700 |
| <b>Shokhsanam Imomaliyeva, Anvar Makhkamov, Doniyor Dadamirzayev, Mirzabek Nabijanov</b>                                                  |     |
| Joriy aktivlar auditida firibgarlik holatlarini aniqlash metodlarini takomillashtirish .....                                              | 704 |
| <b>Mavliyanova Dilobar Maxkamovna</b>                                                                                                     |     |
| Состояние гендерного равенства в экономических секторах и влияние стереотипов на рынок труда (с фокусом на Узбекистан) .....              | 710 |
| <b>Адалат Худайбергенова Нейматуллаевна, Севинч Фатиллоева Лутфилло кизи, Дилфуза Абдуллаева Розакуловна</b>                              |     |
| Динамика международных денежных переводов и тренды их развития в узбекистане .....                                                        | 718 |
| <b>Гимранова О. Б.</b>                                                                                                                    |     |
| Turizm sohasi investitsion salohiyatiga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar .....                                                      | 726 |
| <b>Ayubov Ilyos Iloxomovich</b>                                                                                                           |     |
| Enhancing waste management efficiency through digital technologies .....                                                                  | 732 |
| <b>Nurmetova Muyassar Jumanazarovna</b>                                                                                                   |     |
| Qurilish jarayonlarini boshqarishning xorij tajribalari va ularning milliy investitsion-qurilish sohasiga transformatsiyasi .....         | 740 |
| <b>Abduvaliyev Bekzod Muxiddin o'g'li</b>                                                                                                 |     |
| Tijorat bank aktivlari portfelini samaradorligini takomillatirishning zamonaviy yo'llari .....                                            | 747 |
| <b>Xojiyev Jaxongir Dushabayevich</b>                                                                                                     |     |
| Tijorat banklarining yashil iqtisodiyotga o'tishdagi faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari .....                                       | 753 |
| <b>Mirzaxmedova A. A.</b>                                                                                                                 |     |
| Buxoro shahrining barqaror rivojlanishida shahar infratuzilmasini yaratish metodlari .....                                                | 759 |
| <b>Xasanov Feruz Anvarovich, Reyimbayev Shuxrat Sadullayevich</b>                                                                         |     |
| O'zbekistonda turizmni diversifikatsiya qilish va ixtisoslashgan turizm yo'nalishlari rivoji .....                                        | 764 |
| <b>Matkarimov Jahongir Shamuratovich</b>                                                                                                  |     |



# O'ZBEKISTONDA TURIZMNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH VA IXTISOSLASHGAN TURIZM YO'NALISHLARI RIVOJI

**Matkarimov Jahongir Shamuratovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Email: matkarimovj920@gmail.com

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda turizmni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari, ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarini rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati tahlil qilingan. Shu bilan birga, sog'lomlashtirish, gastronomik, ekstremal, ekologik va qishloq turizmi turlarini rivojlantirishning istiqbollari ilmiy asosda yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm diversifikatsiyasi, ixtisoslashgan turizm, gastronomik turizm, ekologik turizm, sog'lomlashtirish turizmi.

**Abstract:** The article analyzes the theoretical foundations of tourism diversification in Uzbekistan and highlights the economic and social importance of developing specialized tourism sectors. Particular attention is given to the prospects for health, gastronomic, extreme, ecological, and rural tourism development.

**Key words:** tourism diversification, specialized tourism, gastronomic tourism, ecological tourism, health tourism.

**Аннотация:** В статье проанализированы теоретические основы диверсификации туризма в Узбекистане и раскрыто экономическое и социальное значение развития специализированных направлений туризма. Особое внимание уделено перспективам оздоровительного, гастрономического, экстремального, экологического и сельского туризма.

**Ключевые слова:** диверсификация туризма, специализированный туризм, гастрономический туризм, экологический туризм, оздоровительный туризм.

## KIRISH

Turizm bugungi kunda jahon xo'jaligining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri sifatida ko'rilmogda. O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, tabiiy resurslari va geografik qulayligi mamlakat turizm salohiyatini yanada kengaytirishga zamin yaratadi. Shu bilan birga, global turizm bozorida kuchli raqobatning mavjudligi hamda sayyohlar talabining tobora o'zgarib borishi turizm sohasida yangicha yondashuvlarni, jumladan, xizmatlar diversifikatsiyasi va ixtisoslashgan yo'nalishlarni rivojlantirishni talab qilmoqda. Mamlakat turizm strategiyasida bu yo'nalishlar asosiy ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmogda, chunki an'anaviy tarixiy-me'moriy marshrutlar bilan bir qatorda sog'lomlashtirish, ekologik, qishloq xo'jaligi, gastronomik, ziyorat, ekstremal va boshqa ixtisoslashgan turizm turlarini rivojlantirish iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlarini qamrab olib, hududlarda ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va investitsiya oqimini rag'batlantirish



imkonini beradi. Shu jihatdan, turizmni diversifikatsiya qilish O'zbekistonning milliy iqtisodiy rivojlanish strategiyasi doirasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada O'zbekistonda turizmni diversifikatsiya qilishning nazariy asoslari, uning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligi, shuningdek, ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarining rivojlanish holati hamda istiqbollari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar mamlakatning turizm siyosatini takomillashtirish, ichki va tashqi turizm oqimini oshirish, shuningdek, hududlararo iqtisodiy tengsizlikni yumshatishda muhim nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizmni diversifikatsiya qilish masalasi global miqyosda keng tadqiq qilinib kelinmoqda. Masalan, Buhalis (2000) o'z izlanishlarida turizmning ixtisoslashgan yo'nalishlarga bo'linishi sayyohlar talabining segmentatsiyasi asosida shakllanishini, bu esa hududiy raqobatbardoshlikni oshirishini ta'kidlagan. Weaver va Lawton 2002-yildagi izlanishlarida ekologik turizm, gastronomik turizm, sog'lomlashtirish turizmi kabi ixtisoslashgan turlarni rivojlantirish barqaror turizm modelini shakllantirishda muhim omil ekanini asoslagan. Lane va Kastenholz 2015-yildagi tadqiqotida esa qishloq turizmini rivojlantirish nafaqat xizmatlar diversifikatsiyasiga, balki qishloq infratuzilmasini yaxshilash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishini ta'kidlagan.

O'zbekiston kontekstida turizmni diversifikatsiya qilish muammolarini Umarov va Xodjayev 2019-yilda o'rganib, mamlakatning tarixiy-me'moriy marshrutlari bilan bir qatorda ziyorat, gastronomik, ekstremal va sog'lomlashtirish turizmi turlarini rivojlantirish zarurligini ta'kidlagan. Rashidov 2020-yilda yozganidek, O'zbekistonda gastronomik turizm yo'nalishlari rivoji mintaqaviy brendlar va milliy oshxona namoyishini kuchaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Yusupova 2021-yildagi tadqiqotida ixtisoslashgan turizm turlarining rivojlanishi uchun marketing strategiyalarini takomillashtirish zarurligini, xususan, hududiy brendlashtirish orqali turistlar oqimini oshirish mumkinligini asoslab bergan.

Jahon Turizm Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2019-yildan boshlab ixtisoslashgan turizm segmentlari umumiy turizm daromadlarining qariyb 30 foizini tashkil etmoqda, bu esa diversifikatsiya strategiyalarining iqtisodiy samaradorligini ko'rsatadi. Nurov va Islomov 2022-yilda O'zbekistonda ekstremal turizmning rivojlanishi bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarida, ushbu yo'nalishning tog'li hududlarda ish o'rinlari yaratish va infratuzilmani modernizatsiya qilish imkoniyatlarini ta'kidlagan.

Shu bilan birga, Xo'jayev va boshqa olimlar 2023-yildagi tahlillarida sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirish, xususan sanatoriylar va SPA markazlarining modernizatsiyasi mahalliy hamda xorijiy sayyohlar oqimini barqaror oshirishga xizmat qilishini qayd etgan. Ushbu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonning turizm rivojlantirish strategiyasida diversifikatsiya va ixtisoslashgan yo'nalishlar iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.


## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar yig'ish uchun O'zbekistonning turizm obyektlari bo'yicha statistik hisobotlar, Turizmni rivojlantirish qo'mitasi ma'lumotlari va soha mutaxassislari bilan yarim strukturalangan intervyular qo'llanildi, olingan ma'lumotlar kontent tahlili va taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi.

## TAHLIL VA NATIJALAR


O'zbekistonda turizm sohasi so'nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. 2017-yilda 2,6 mln xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich salkam 4 karraga oshib, 10,1 mln nafarga yetgan. Viza rejimi bo'yicha islohotlar yildan-yilga yengillashib, shunga yarasha xorijiy sayyohlar soni ham oshib bormoqda. Sayyohlarning mamlakatda bo'lish davomiyligi ham oshdi – 2024-yilda mehmonlarning o'rtacha qolish muddati 4 kunga uzaydi. Shuningdek, ichki turizm sezilarli o'sdi: "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 2024-yilda jami 22,7 mln mahalliy sayyohlik tashriflari amalga oshirildi (2017-yilga nisbatan 2,1 marta o'sish). Turizm xizmatlari eksporti hajmi ham ortib, 2024-yil yakunlari bo'yicha deyarli 3,4

mlrd AQSh dollariga (2017-yilga nisbatan 6,4 barobar o'sish) yetdi. Umuman, turizm sohasi yalpi ichki maxsulotdagi ulushini 5%ga yetkazish strategik maqsad qilib belgilangan bo'lib, bu tarmoq iqtisodiyotning yetakchi sohalari biriga aylanmoqda (1-rasm).



1-rasm. 2017–2024-yillarda O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar va ichki sayyohlar dinamikasi (mln nafarda)

Tashriflar geografiyasiga nazar solsak, asosiy oqim qo'shni davlatlar hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, 2024 yilda xorijiy sayyohlarning 90% dan ortig'i Markaziy Osiyo va MDH davlatlaridan bo'ldi. Bu raqamlar O'zbekiston turizmi hali asosan yaqin qo'shnilar va an'anaviy bozorlar bilan chegaralanganini ko'rsatadi. Sayyohlik maqsadlari tarkibi ham bunda muhim omildir – masalan, 2024-yilda kelgan xorijiy tashrifchilarning 63%i qarindosh va do'stlarni ziyorat qilish maqsadida kelgan bo'lsa, faqat 12%i dam olish (turistik) maqsadini ko'zlagan. Qolgan kichik ulush xizmat safari, davolanish, xarid va o'qish kabi boshqa maqsadlarga to'g'ri keladi (jami 25%) (2-rasm).



2-rasm. 2024-yilda O'zbekistonga kelgan xorijiy tashrifchilarning maqsadlar bo'yicha tarkibi

Ko'rinib turibdiki, aksariyat qismi turizm xizmatlaridan foydalanuvchi an'anaviy sayyohlar emas, balki yaqinlari ziyorati bilan bog'liq.

Yuqoridagi holat shuni ko'rsatadiki, hozirgi kunda O'zbekiston turizmi asosan an'anaviy yo'nalishlarda (tarixiy-madaniy meros shaharlari, qarindoshlik vizitlari) to'plangan. 2023-yilda vizasiz rejim kengaytirilib, 93 ta davlat fuqarolari uchun viza tartibi soddalashtirilgani sohadagi islohotlarning muhim omillaridan bo'ldi. Turizm infratuzilmasi ham kengaymoqda: masalan, 2023-yil davomida 810 ta yangi turoperator va turistik firma faoliyati yo'lga qo'yilib, turizm va unga yondosh tarmoqlarda 70 mingta yangi ish o'rinlari yaratildi. Shu yili 180 dan ziyod yangi mehmonxona, 200 dan ortiq xostel va ko'plab oilaviy mehmon uylari foydalanishga topshirildi<sup>1</sup>.

1 Манба: Туризм қўмитаси ҳисоботи.



Bularning barchasi turizm bozori kengayayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish zarurati paydo bo'lmoqda.

Yuqorida qayd etilganidek, O'zbekistonga kelayotgan mehmonlarning katta qismi an'anaviy yo'nalishlar – tarixiy shaharlarga tashrif va qarindosh-urug' ziyorati orqali qamrab olingan. Turizm xizmatlarining cheklangan ixtisoslashuvi mamlakatning boy sayyohlik salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Masalan, hozirgi kunda umumiy tashriflarning atigi 12 foizigina sayohat va dam olish turizmiga to'g'ri kelayotgani turistik mahsulotlarning rang-barang emasligi bilan izohlanadi.

Diversifikatsiyaning zarurati shuni anglatadiki, O'zbekiston turizm bozorida yangi maxsulot va xizmat turlarini joriy etish orqali kengroq auditoriyani jalb etish mumkin.

Quyida O'zbekistonda turizm mahsulotlarni diversifikatsiya qilish bir nechta sabablarga ko'ra muhimligini qo'rib chiqishimiz mumkin:

Iqtisodiy samaradorlik: Turizm – nafaqat sayohatlar soni, balki xar bir turistdan tushadigan daromadni oshirishni ham ko'zlaydi. Ixtisoslashgan turizm turlari (eko, agro, ta'lim, tibbiy va h.k.) yuqori qo'shimcha qiymat yaratib, sayyohlarni uzoqroq va ko'proq sarf-xarajat bilan mamlakatda qolishiga xizmat qiladi. Ushbu turizm maqsadlarida kelgan mehmon nafaqat davolanish, balki turar joy, ovqatlanish va boshqa servislarga ham talablarni oshiradi.

Mavsumiylik va hududiy muvozanat: Hozirgi turizm asosan bahor va kuz fasllarida, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi markazlarda to'plangan. Ixtisoslashgan turizm turlari esa yil davomida turli hududlarga sayyohlarni jalb etishi mumkin. Masalan, tog'-chang'i kurortlari qishda, ekologik va qishloq turizmi yoz faslida faollasha oladi. Bu orqali turizm oqimini hududlar va mavsumlar kesimida tenglashtirib, infratuzilmaning yil bo'yi band bo'lishini ta'minlash mumkin.

Taassurotning xilma-xilligi: Zamonaviy sayyohlar faqat muzey va me'moriy obidalarni tomosha qilish bilangina cheklanib qolmay, balki yangi tajribalar izlashmoqda. Ekstremal sportlar, mahalliy madaniyatda bevosita ishtirok etish, tabiat qo'ynidagi sayohatlar, milliy taomlarni tatib ko'rish kabi taassurotga boy turlar jahon turizm bozorida tobora talabgor bo'lmoqda. O'zbekiston bunday imkoniyatlarni taqdim etishi orqali o'z imijini boyitib, yanada jozibador turistik yo'nalishga aylanishi mumkin.

Biroq, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish bo'yicha ayrim muammolar mavjud.

Birinchidan, infratuzilma va servis masalalari: ayrim ixtisoslashgan turizm uchun zarur sharoitlar to'liq tayyor emas. Masalan, tog' va eko-turizm uchun tog'li hududlarda yo'llar, kichik mehmon uylari, yo'l boshlovchi (gid)lar tayyorlash talab etiladi.

Ikkinchidan, kadrlar va bilim masalasi: har bir maxsus turizm yo'nalishi bo'yicha malaka oshirilgan gidlar, instruktorlar va mutaxassislar yetishmasligi seziladi. Masalan, ekologik turizmda tabiatni yaxshi biladigan yetakchilar, tibbiy turizmga xorijiy tillarni biladigan tibbiyot xodimlari zarur.

Uchinchidan, marketing va targ'ibot: an'anaviy yo'nalishlardan tashqari yangi turizm mahsulotlari uchun xalqaro bozorda reklama va targ'ib yetarli emas (ayniqsa, Yevropa, Osiyo bozorlarida O'zbekistonning eko yoki gastroturizm imkoniyatlarini biluvchilar kam).

To'rtinchidan, moliyalash va sarmoya: diversifikatsiya qilish yangi loyihalarga sarmoya talab qiladi – masalan, yangi dam olish maskanlari qurish, asbob-uskuna sotib olish, kadrlar tayyorlash uchun mablag' kerak. Bu borada davlat tomonidan imtiyoz va grantlar berilayotgan bo'lsa-da, xususiy sektorning faolligiga ham ehtiyoj katta.

Demak, turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish – bu mavjud cheklangan segmentlarni kengaytirib, mamlakat turizm salohiyatini to'liqroq ro'yobga chiqarish demakdir.

O'zbekiston geografik va madaniy jihatdan turli-xil resurslarga ega bo'lib, quyidagi ixtisoslashgan turizm yo'nalishlarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar mavjud:

Ekologik (eko) turizm. Ekologik turizm – bu tabiat qo'ynida sayohat qilish, tabiiy boyliklar va bioxilma-xillikni tomosha qilishga qaratilgan yo'nalishdir. O'zbekiston bu borada Markaziy Osiyoda yetakchi imkoniyatlarga ega: mamlakat hududida 8 ta milliy bog' va 12 ta davlat qo'riqxonasi mavjud. Jumladan, Ugam-Chotqol biosfera rezervatsiyasi, Zomin milliy bog'i, Kitob geologiya qo'riqxonasi, Nurota davlat qo'riqxonasi, shuningdek, Orol dengizi atrofidagi ekologik ofat hududi eko-turizm

uchun o'ziga xos manzillardir<sup>2</sup>. O'zbekistonning hayratlanarli darajada xilma-xil tabiati bor: Qizilqum va Ustyurt kabi cho'llar, Boysun va Chimyon kabi tog'lar, sharsharalar, musaffo ko'llar va tez oqar daryolar sayyohlar uchun jozibador manzaralar mavjud.

Ekoturizm doirasida sayohat kompaniyalari turli mahsulotlar taklif etmoqda: cho'l bo'ylab safarlar, tog'lararo piyoda yurishlar (trekking), muzliklarga chiqish, milliy bog' va qo'riqxonalariga turlar kabi dasturlar misol bo'la oladi. Masalan, Surxondaryoning Boysun tog'lari bo'ylab yo'nalishlar, Navoiy yaqinidagi Sarmishsoy darasidagi 4000 dan ortiq qadimiy tog' iyerogliflarini tomosha qilishga mo'ljallangan piyoda safarlar turistlar orasida mashhurlik qozonmoqda. Shu bilan birga, ekologik turizm atrof-muhitni asrashga ko'maklashadi hamda mahalliy aholi uchun tabiatni muhofaza qilgan holda daromad manbaini yaratish mumkin.

O'zbekistonda eko-turizmni rivojlantirish istiqbollari katta. Milliy bog'larda zamonaviy eko-yo'lak, kuzatuv maydonlari, ma'lumot markazlari tashkil etish mumkin. Xususan, O'zbekistonning o'ziga xos tabiiy hodisalari – masalan, Orol dengizi qurishidan hosil bo'lgan "quruq dengiz tubi sayohati" xorijiy sayyohlar uchun noyob tajriba bo'lishi mumkin.

Agrar va qishloq turizmi. Qishloq (agro) turizmi – bu shahar shovqinidan holi qishloq joylarida vaqt o'tkazish, mahalliy aholi turmush tarzi bilan tanishish va xohishga ko'ra qishloq xo'jaligi ishlarida qatnashishni o'z ichiga oladi. O'zbekiston qishloq joylarining o'ziga xos haqiqiy muhiti, an'anaviy turmush tarzi bilan jalb etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda bir qator qishloq hududlari turizm uchun "turizm qishlog'i" maqomiga ega. Masalan, Jizzax viloyatida "Duoba" turizm qishlog'i, Navoiy viloyatida Sentob, Qashqadaryo viloyatida "Miraki", Samarqandda "Konigil" turizm qishlog'i, "Bog'ibaland" turizm mahallasi, "Tersak" turizm qishlog'i, Surxondaryo viloyatida "Sangardak" MFY, "Sina", "Omonxona", Toshkent viloyatida "Ovjazsoy" turizm qishlog'i, "Ertoshsoy" turizm qishlog'i, "Chashma", "Kumushkon" turizm qishloqlari, Namangan viloyatida "Nanay", "Chodak" turizm qishloqlari kabi jami 15 ta turizm kishlog'i milliy an'anaviy qishloq sifatida sayyohlarga xizmat ko'rsatmoqda<sup>3</sup>.

Farg'ona vodiysida agroturizm ayniqsa rivojlangan: Farg'ona tumanidagi malinali bog'lar, Oltiariqdagi uzum plantatsiyalari, Quvasoy atrofidagi qulupnay va gilos xo'jaliklari sayohatchilar qabul qilmoqda. Masalan, Farg'ona viloyatidagi "Mehrigiyo" agroturistik kompleksi dorivor o'simliklar plantatsiyasiga ega bo'lib, mehmonlar uchun giyohlar yetishtirish va choy tayyorlash jarayonini ko'rish, giyohli choylardan tatib ko'rish xizmatlarini taklif etmoqda. Bunday tajriba turistlarga shahar hayotidan butunlay boshqa muhitda hordiq chiqarish, ekologik toza mahsulotlardan bahramand bo'lish imkonini beradi. Agroturizm qishloq xo'jaligiga yordamchi tarmoq sifatida rivojlanib, qishloq aholisi bandligini oshiradi hamda an'anaviy madaniyatni ko'rsatishga xizmat qiladi.

Agrar turizm ichki va tashqi bozorda qiziqish uyg'otmoqda. Misol uchun, xorijiy turistlar uchun o'zbek qishlog'ida bir kecha o'tkazib, tandirda non pishirishni ko'rish, bog'dan mevani terib yeyish kabi tajribalar juda qiziqarli, ya'ni ular uchun ekzotika hisoblanadi. Shu sabab, kelgusida har bir viloyatlarda kamida bitta namunaviy "turistik qishloq"lar tashkil etish, ularda oilaviy mehmon uylari, mahalliy hunarmandchilik ustaxonalarini rivojlantirish katta samara beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mehmon uyi tashkil etuvchi aholiga imtiyozli kredit ajratish, soliq kamaytirish kabi imtiyozlar joriy etilgan.

Tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi. Tibbiy turizm – xorijiy fuqarolarning davolanish yoki sog'lomlashtirish maqsadida mamlakatga tashrif buyurishi va shu bilan birga turistik xizmatlardan ham foydalanishidir. O'zbekiston sog'liqni saqlash sohasidagi yutuqlari va qulay iqlimi tufayli mazkur yo'nalishda ham raqobatbardosh bo'lib bormoqda. Sohada olib borilayotgan islohotlar samarasida, mamlakatimizda chet ellik bemorlarni jalb qiluvchi tibbiyot maskanlari paydo bo'lmoqda.

Rasmiy statistikaga ko'ra, 2024-yil davomida 104,9 ming nafar xorijiy fuqaro davolanish maqsadida O'zbekistonga tashrif buyurgan. Bu o'tgan yilga nisbatan 71% ga ko'pdir. Asosan yaqin qo'shnilar (Qozog'iston, Turkmaniston, Afg'oniston) va ayrim Osiyo mamlakatlaridan (Bangladesh, Hindiston) bemorlar kelishmoqda<sup>4</sup>. Sababi shundaki, O'zbekistonda tibbiy xizmatlar narxi ancha

2 [uzbekistan.travel](https://uzbekistan.travel). Экотуризм. Milliy bog'lar va qo'riqxonalar.

3 UZA – Milliy axborot agentli. Bugungi kunda O'zbekistonda nechta turizm qishlog'i bor? 5.11.2024 y.

4 O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. XVIII. TURISTIK OQIM. 2024 yil yanvar-sentabr.



raqobatbardosh va sifat jihatdan xalqaro standartlarga moslashayotganidir. Masalan, yurtimizdagi stomatologiya yoki yurak-qon tomir jarrohligi xizmatlari yaqin xorijga nisbatan arzon va sifatli ekani ta'kidlanmoqda.

Hukumat tibbiy turizmni rivojlantirish uchun maxsus strategiyani amalga oshirmoqda. Kelgusida "Abu Ali Ibn Sino (Avitsenna)" brendi ostida O'zbekistonning tibbiy-sanatoriya turizmi raqobatbardosh imijini yaratish rejalashtirilgan. Shuningdek, hududlarda zamonaviy meditsina-turizm klasterlari tashkil etilib, "konsalting – diagnostika – davolash – transport – tibbiy tarjimon" kabi xizmatlarni qamrab oladigan integratsiyalashgan tartib joriy qilinmoqda<sup>5</sup>. Shu bilan birga, mamlakatimizning shifobaxsh tabiiy resurslariga asoslangan sanatoriy va kurortlar faoliyati kengaymoqda: Chimyon, Chortoq, Zomin, Shahrisabz tog'li hududlarida zamonaviy sanatoriy-majmualar turistlar qabul qila boshladi.

Tibbiy turizmning yana bir tarmog'i – sog'lomlashtirish (wellness) turizmi ham ahamiyat kasb etadi. Bular kurortlardagi mineral suv va loy havzalari, tog' havosidagi dam olish maskanlari, SPA va massaj markazlarini qamrab oladi. O'zbekistonda turli xastaliklarni profilaktika qilish va organizmni tiklash xizmatlarini taklif etmoqda. Kelgusida ana shunday maskanlarning darajasini oshirib, xalqaro akkreditatsiyalarini olish, chegaradosh davlatlar bozoriga fa'ol reklama qilish zarur.

Ekstremal va sarguzasht turizmi. Ekstremal (sarguzasht) turizm so'nggi paytlarda jahonda tez sur'atlar bilan ommalashib borayotgan yo'nalish bo'lib, O'zbekistonda ham bu sohada ilk qadamlar qo'yilmoqda. Mamlakatning yumshoq iqlimi deyarli butun yil davomida sarguzasht sportlari bilan shug'ullanish imkonini beradi. Ayni vaqtda rivojlanayotgan ekstremal turizm turlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

Tog'-chang'i va snoubord sporti: Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida to'rtta yirik tog'-chang'i kurorti mavjud – Chimyon, Beldersoy, Amirsoy va Yangibog'. Ular qish faslida nafaqat mahalliy aholini, balki xorijiy sayyohlarni ham o'ziga tortmoqda. Jumladan, 2019-yil ochilgan zamonaviy Amirsoy Mountain Resort Markaziy Osiyodagi eng ilg'or tog'-chang'i bazalaridan biri bo'lib, bir mavsumda o'n minglab mehmonlarni qabul qilmoqda. Yangi loyihalar hisobidan bunday kurortlar soni oshib bormoqda.

Tog' turizmi va xayking: O'zbekistonning ulkan tog'li hududlari – Tyan-Shan va Hisor tog'lari – piyoda turlar, alpinizm va g'or turizmi uchun katta salohiyatga ega. Hozircha bu soha kichik, ammo faol rivojlanib borayotgan tarmoqdir. Nurota tog'laridagi qadimiy qishloqlar orasidagi yo'llar, Surxondaryoning Boysun tog'lari, Namangan yaqinidagi Chodak va Chimyon atrofi xaykerlar uchun qiziqarli yo'nalishlar sanaladi. Shu bilan birga, yulduzli osmon ostida chodirlarda tunkash, tog' kyllarida cho'milish kabi faoliyatlar ham jalb etilmoqda.

Adrenalin sportlari: Motosport (ralli-reydlar), tog'ollarida velosport, paraplanerizm (qanotli parashyutda uchish), rafting (tog' daryolarida salda suzish) kabi ekstremal mashg'ulotlar ham yo'lga qo'yilmoqda. Masalan, Qashqadaryo viloyatidagi O'zbekistonning eng baland sharsharasi – Suvtushar sharsharasiga trekking, Ugam daryosida rafting turlari tashkil etilgan. Garchi hozircha bu xizmatlar cheklangan doirada bo'lsa-da, ularga qiziqish ortib bormoqda. Shu sababli adrenalin sport turlarini yanada rivojlantirish imkoniyatlaridan foydalanish lozim. Masalan, Chatqol daryosida raftingni, Namangan, Jizzax va Surxondaryo viloyatlarining tog'li hududlarida deltaplanerizmni rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalarini amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Ekstremal turizmning rivoji uchun, avvalo, xavfsizlik infratuzilmasini ta'minlash lozim. Tog'lik hududlarda qutqaruv xizmati, tibbiy punktlar, malakali instruktorlar doimiy tayyor turishi kerak. Davlat bu borada qonunchilikni takomillashtirib, ekstremal turlar tashkilotchilariga maxsus talablar joriy etish zarur.

Shuningdek, xususiy sektor tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash zarur: yangi vertolet orqali sayr xizmatlari, yaxting va dayving markazlari kabi loyihalarga sarmoya jalb qilish mumkin. Masalan, O'zbekistondagi o'rmon xo'jaligi hududlarida ekstremal sport majmuasi va rope-park lar qurish loyihalari uchun subsidiyalar ajratish orqali tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadga muvofiq.

Umuman olganda ekstremal turizm mamlakat imidjini yangi qirralarda namoyon etib, yoshlar va mahoratli sayyohlar qatlamini jalb qiladigan yo'nalishdir.

Ziyorat (diniy) turizmi. Ziyorat turizmi – bu diniy e'tiqodga bog'liq muqaddas maskanlarni ziyorat

5 [www.uza.uz/posts/670590](http://www.uza.uz/posts/670590). O'zbekistonda tibbiy va sog'lomlashtirish turizmi imkoniyatlari kengaymoqda. 20.12.2024y.

qilish bilan bog'liq sayohatlardir. O'zbekiston tarixan Islom sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib kelgan. Shu bilan birga, bu hududda buddizm va nasroniylik merosi ham mavjud.

Ziyorat turizmi O'zbekiston uchun ulkan salohiyatli bozor hisoblanadi. Xususan, musulmon olamining janubi-sharqiy Osiyo qismi – Malayziya, Indoneziya, Hindiston musulmonlari – Samarqand va Buxoroni uzoq yillardan beri e'zozlab keladi. Keyingi yillarda ushbu mamlakatlardan "Kichik haj" dasturlari bo'yicha turistik guruhlar kelishi an'anaga aylanib bormoqda.

2019 yili Buxoroda I Xalqaro Ziyorat turizmi forumi o'tkazilib, 30 dan ziyod davlatdan vakillar ishtirok etishdi. Unda ziyorat turizmi bo'yicha hamkorlik deklaratsiyasi imzolaniib, O'zbekistonning mazkur yo'nalishdagi brendini kuchaytirish choralari belgilandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan har yili noyabr oyining birinchi haftasida "Ziyorat turizmi haftaligi" o'tkazilmoqda<sup>6</sup>.

Samarqand va Buxoro aeroportlari imkoniyatlari kengaytirilib, hozirgi kunda Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo shaharlaridan charter reyslar qabul qilmoqda. Ziyorat turlarini qamrab oluvchi maxsus marshrutlar ishlab chiqilgan – "7 avliyo ziyorati" (Buxoro viloyati bo'ylab), "Samarqand muqaddas maskanlari" kabi. Ularga malakali gid-imomlar jalb etilib, ziyoratchilarga nafaqat tarixiy, balki ma'naviy tushuntirishlar berib boriladi. Kelgusida Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) bilan hamkorlikda "Islom madaniyati merosi markazi" tashkil etish va shu orqali IHTga a'zo davlatlardan sayohatlarni ko'paytirish rejalashtirilgan.

Gastronomik turizm. Gastronomik turizm – biror mamlakatning milliy taomlari, oshxona an'analari tatib ko'rish hamda kulinar merosini o'rganishga qaratilgan yo'nalish. O'zbekiston bu borada juda boy merosga ega. Mohiyatan, bu yurtga kelgan sayyoh hech qachon ovqatni rad eta olmaydi – bu yerda har bir hududning o'ziga xos taniqli taomlari bor. Ayni paytda O'zbekiston safari davomida mehmon nafaqat mazali palov yoki somsa yeyishi, balki taom tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etishi ham mumkin.

O'zbek milliy taomlari xilma-xilligi bilan dunyoga mashhur: palov, shurva, qurut, tandir-kabob, osh, lagmon, somsa, norin, xalva, chak-chak – bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Har bir hududning o'ziga xos maxsus taomlari bor: masalan, Samarqand noni, Buxoro ugro suvli oshi, Qashqadaryo yaxnasi, Xorazm shvit oshi va tuxumbarak, Farg'ona mastavasi va h.k.

Gastroturizm doirasida O'zbekistonda qator tadbirlar o'tkazilmoqda. Bunday tadbirlar xorijiy turistlarda katta qiziqish uyg'otadi. Shuningdek, ayrim turistik kompaniyalar maxsus "gastronomik turlar" taklif etmoqda. Masalan, sayyohlar mahalliy oilalar xonadoniga olib kirib, ular bilan birga palov pishirish, non yopish kabi interaktiv dasturlarda ishtirok etishmoqda.

Gastronomik turizm nafaqat taom yeyish, balki vino turizmini ham qamrab oladi. O'zbekistonda Samarqand va Parkent (Toshkent viloyati)da uzumchilik va vinochilik an'analari mavjud. Samarqanddagi Xovrenko nomidagi vino zavodi Vinochilik muzeyi va "Bagizagan" zavodining degustatsiya markazi, Toshkent viloyatidagi "Hamkor" vinochilik xo'jaligi sayyohlar orasida mashhurlashmoqda. Keyingi qadam sifatida, milliy ichimliklar – masalan, qimiz (biya sutidan tayyorlanadigan ichimlik) kabi mahsulotlarni brendga aylantirish mumkin.

Yuqoridagi tahlil asosida, har bir ixtisoslashgan turizm yo'nalishini rivojlantirish bo'yicha quyidagi yo'nalishlardagi amaliy ishlarni yo'lga qo'yish taklif qilinadi:

1. Milliy strategiya va muvofiqlashtirish: Turizmni diversifikatsiya qilish bo'yicha yaxlit davlat strategiyasi zarur. Unda har bir yo'nalish (eko, agro, tibbiy, ekstremal, ziyorat, gastro va h.k.) bo'yicha aniq maqsad va ko'rsatkichlar belgilab berilishi kerak. Masalan, 2030-yilgacha ekologik turizmning ulushini umumiy turizmga 10% ga yetkazish, tibbiy turizmdan tushumni yiliga masalan 500 mln dollarga chiqarish kabi.

2. Infratuzilma va logistikaga investitsiya: Har bir maxsus yo'nalish bo'yicha "mahsulot zanjiri"ni qurish kerak. Masalan, eko-turizm uchun eko-yo'laklar va lagerlar tarmog'ini yaratish, tog' turizmi uchun qulay sayyohlar lagerlari va qutqaruv postlarini tashkil etish, agroturizm uchun turistik qishloqlar va ularga olib boradigan yo'l belgilari o'rnatish. Bu ishlarga davlat-xususiy sheriklik asosida sarmoya ajratish lozim – masalan, biror milliy bog'da eko-lager qurmoqchi bo'lgan xususiy tadbirkorga yer maydoni bepul ajratilib, soliq imtiyozlari berilsa, u ham infratuzilmani rivojlantiradi, ham daromad oladi. Transport logistikasini yaxshilash uchun ichki aviaqatnovlar tarmog'ini kengaytirish zarur: turizm

6 <https://uza.uz/uz/posts/661896>. Бухорода "Халқаро зиёрат туризми ҳафталиги" бошланди. 28.11.2024 й.



mavsumlarida Namangan – Buxoro, Toshkent – Mo‘ynoq, Samarqand – Urganch kabi yo‘nalishlarda charter parvozlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiq.

3. Kadrlar tayyorlash va sertifikatlash: Ixtisoslashgan turizm uchun maxsus kadrlar tayyorlashga e‘tibor berish kerak. Masalan, ekoturizm bo‘yicha biolog-ekskursovodlar, ekstremal turizm bo‘yicha instruktorlar, agroturizm bo‘yicha gid-fermerlar va h.k. Shu turdagi kadrlarni tayyorlash uchun turizm kollejlari dasturlariga maxsus kurslar kiritish lozim. Shuningdek, ularni sertifikatlash tizimi bo‘lishi zarur – masalan, “Ekoturizm bo‘yicha malaka sertifikati”, “Ziyorat turizmi bo‘yicha gid sertifikati” kabi.

4. Mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish: Turizmni rivojlantirish mahalliy aholi manfaatiga xizmat qilsa, u holda uzoq muddatli barqarorlik ta‘minlanadi. Shu sabab, har bir viloyat yoki tuman o‘zining sayyohlik brendlarini shakllantirishi zarur. Masalan, Jizzax viloyati – Zomin tog‘ va ko‘llari, Qoraqalpog‘iston – Orol sahrosi (eko va ekstremal turizm uchun), Navoiy – Sarmishsoy rasmi qoyatoshlari va h.k. Bunda mahalliy hokimiyat va jamoat tashkilotlari turistik mahsulot yaratishda ishtirok etishi kerak: yangi festivallar, turizm yarmarkalari tashkil qilish, mahalliy hunarmandchilikni brend qilish. Mahalliy aholi uchun “Har bir xonadon – bir mehmonxona” g‘oyasi targ‘ib qilinib, oilaviy mehmon uylar sonini keskin oshirish mumkin.

5. Raqamli texnologiyalar va marketpleyslar: Zamonaviy turistik mahsulotlar onlayn muhitda sotiladi va targ‘ib etiladi. Shu bois, O‘zbekistonning ixtisoslashgan turlari uchun onlayn platformalar yaratish zarur. Masalan, barcha agroturizm qishloqlari va xizmatlari joylashtiriladigan alohida, yoki ekstremal turlarni bron qilish mumkin bo‘lgan alohida platformalar yaratish lozim. Biroq, hozircha bunday maxsus marketpleyslar yo‘q, aksariyat xizmatlar turfirmalarning alohida veb-saytlarida mavjud xolos.

6. Har bir yo‘nalish bo‘yicha “flagman loyiha”lar: E‘tiborni jamlash uchun, har bir turizm turiga birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich strategik yondoshish lozim. Masalan, 2026–2027-yillarda eko-turizmni rivojlantirish yili deb e‘lon qilib, shu doirada bir nechta flagman loyihalarni amalga oshirish mumkin. Bunda, loyiha doirasida birinchi bitta ekoturizm qishlog‘ini to‘liq ta‘mirlab, qulay sharoit yaratish, milliy bog‘larda oxiriga yetkazilmagan infrastrukturani yakunlash, “O‘zbekistonning 10 ta mo‘jizaviy tabiiy maskani” nomli xalqaro PR kampaniyasini o‘tkazish kabi tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Ya‘ni, ustuvorlik va fokus prinsipi rivojlantirish strategiyasini samarali qiladi.

7. Barqarorlik va sifat nazorati: Turizmni diversifikatsiya qilishda barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish lozim. Masalan, milliy bog‘larda ekologiyani saqlash, ziyorat turizmida ziyoratgohlarning muqaddasligini tahqirlamaslik kabi nozik jihatlarni inobatga olish lozim. Shu sabab, har bir yo‘nalish uchun sifat standartlari va kodekslar ishlab chiqilishi kerak va bu aniq bir davlat tuzilmasi tomonidan amalga oshirilishi talab etiladi. Turizm qo‘mitasi qoshida Turizm sifatini nazorat qilish inspeksiyasi tashkil etib, mehmonxona, gidlik, transport xizmatlari sifatini va xavfsizligini monitoring qilishni yo‘lga qo‘yish mumkin. Bu sayyohlar ishonchini mustahkamlaydi hamda xizmatlar sifati oshishiga olib keladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o‘rnida aytganda, O‘zbekistonda turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilish va ixtisoslashgan turizm turlarini joriy etish – bu uzoq muddatli istiqbolli yo‘nalishdir. Yuqorida ko‘rib chiqilgan holatlar, imkoniyatlar va muammolar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston bu borada katta salohiyatga ega va uni ro‘yobga chiqarish uchun izchil harakatlar boshlangan. Raqamlar va faktlar diversifikatsiyaning dastlabki samaralarini namoyon etmoqda – xorijiy sayyohlar oqimi tiklandi va oshib bormoqda, turizm xizmatlari eksporti 3,5 mlrd dollarga yaqinlashdi, ichki sayyohatlar soni 22 milliondan ko‘pni tashkil etdi. Hozirgi vazifa shuki, bu sur‘atni saqlab qolish va mustahkamlash, shu bilan birga turizmning barqarorligi va sifatini ta‘minlashdir. Turizm – XXI asr iqtisodiyotining lokomotiv sohalaridan biri bo‘lib, agar to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilsa, u mamlakatning qiyofasini o‘zgartiradi, madaniy merosni dunyoga yanada tarannum etadi va xalq farovonligiga xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-549-son “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019 yil 18 iyul. – T.: 2019.
2. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati. XVIII. Turistik oqim. 2024 yil yanvar-sentabr.
3. D. Buhalis. Marketing the Competitive Destination of the Future. – London: Tourism Management, 2000. – 97-116 b.
4. D. Weaver, L. Lawton. Tourism Management. – New York: Wiley, 2002. – 432 b.



5. B. Lane, E. Kastenholtz. Rural tourism: The evolution of practice and research approaches. – Journal of Sustainable Tourism, 2015. – 113-131 b.
6. Umarov, S. Xodjayev. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 214 b.
7. UNWTO. International Tourism Highlights. – Madrid: UNWTO, 2019. – 54 b.
8. M. Kozak, N. Kozak. The Routledge Handbook of Tourism Impacts. – London: Routledge, 2022. – 430 b.
9. [www.uza.uz](http://www.uza.uz). O'zbekiston Milliy axborot agentligi sayti.
10. [www.uzbekistan.travel](http://www.uzbekistan.travel). O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi maxsus sayti.

# **muhandislik & iqtisodiyot**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. May. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)